



SCIENCE BOX

NOZIM HIKMAT OHANGLARI

Azimjonov Husniddin Ibrohim o‘g‘li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti, 3-kurs talabasi,
azimjonovxusniddin484@gmail.com

Annotatsiya: Nozim Hikmat inson ruhining kuychisi. Ijodida biror voqeani tasvirlashga bag‘ishlangan voqeaband she’rlar yo‘q hisob. Nozim Hikmat asarlarining saviyasi o‘zbek xalqidagi jadid adabiyoti she’rlariga umumiy qiyofada monand bo‘la oladi. O‘tmish ham, bugungi kun ham shoir tuyg‘ulariga ta’sir etadi va muayyan kayfiyat uyg‘otadi. Nozik hislari torini bir chertib qo‘yadi. Bu jihatidan u aynan Nozim Hikmat she’riyatiga naqadar yaqin ekanligini ushbu maqolada ko‘ramiz.

Kalit so‘zlar: Nozim hikmat, ruh, ohang, erk, poeziya, ilohiy kuch.

KIRISH (INTRODUCTION)

XX asrda turk poeziyasida har tomonlama fenomen bo‘lgan inson dunyo yuzini ko‘rdi. Bu shaxs va insoniyat o‘ratasidagi g‘ayrikutilgan uchrashuv barchaga ajoyib tuhfalarini in’om etdi. Bu shunday in’omki, hayotning asosiy me’zoni bo‘lgan insoniylik tuyg‘ularini, xayol erki tuyg‘ularini baralla kuylab barchaga barobar baham ko‘rgan qalam sohibidir. Har bir san’at asari paydo bo‘lar ekan bevosita insonning moddiy hayotidagi holatlarga ham bog‘lanadi, zero, shunday bo‘lishi kerakday, negaki, bu hodisa she’rdagi hayotiylikni, xalq qalbidagi muhabbatni ta’minlaydi ko‘p vaqtarda. Nozim Hikmat hayotidagi qiyinchiliklar, to‘silalar esa she’rlariga qadr-qimmat, qalb qo‘ridagi haqiqatlarni bera oldi. Nozim Hikmat turk she’riyatining uzoq asrlardan buyon davom etib kelayotgan an’anasini buzib, o‘ziga xos va mos yangi yo‘ldan bordi. Shoir turk poeziyasida birinchi bo‘lib erkin vaznda ijod qila boshladи. Bu vaznda qofiya va hijolar o‘lchamiga ko‘p ham e’tibor bermasdan, asosiy maqsad fikrni hammaga aniq, tushunarli qilib berilishligini ko‘zda tutgan. She’rda intonatsiya asosiy o‘rinni egallashi lozim edi. U novator shoir sifatida adabiyot tarixida qoldi. Uning an’analari faqat turk adabiyotiga emas, balki butun turkiy tildagi xalqlar adabiyotiga ham samarali ta’sir qildi. Shu jumladan, ko‘plab o‘zbek shoirlari ham Nozim Hikmatni ayni shu borada yo‘lchisi deb biladilar va bu to‘g‘ri tanlov ham edi. Shoirning “Inson manzaralari” she’riy to‘plami shoir Rauf Parfi tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (METHODS).

Nozim Hikmat asarlarining ruhi, saviyasi o‘zbek xalqidagi jadid adabiyoti she’rlariga umumiy qiyofada monand bo‘la oladi. Inqilobchilik, undash, chorlash, erk kabilalar ayni jadid adabiyotining ham asosiy g‘oyalaridandir. Milliy ozodlik harakati aks ettirilgan asarlardan biri sifatida Nozim Hikmatning “Ozodlik kurashi haqida doston” asarini ko‘rsatish mumkin. Bu asar turmada o‘tirgan yillarda yozilgan bo‘lib, unda turk xalqining erki va ozodligi uchun kurashayotgan kishilar obrazi yoritilgan. Shoir xalqni kuylar ekan u endi faqat shoirgina bo‘lib qolmasdan, balki jamoat arbobi hamdir. U qalamda ham safda ham eli uchun kurash olib bordi. Shu bois umrining 17 yilini qamoqxonalarda o‘tkazdi, o‘z vatanidan uzoqda, musofirlikda yashadi. Shoir hammasini oddiy qabul





SCIENCE BOX

qildi, barcha jabhaga taqdirning inoyati deya qaray oldi. Nozim Hikmat adabiyotda katta ijobiy o'zgarish yasagan shoirdir. Uning sarbast va erkin vazndagi she'rlari XX asr o'zbek she'riyatining yuksalishiga ham kata hissa bo'lib qo'shildi. Ijodkorning "65lar", "Inson manzaralari" she'riy asarlari, "Surur" romani, "Bir sevgi afsonasi", "Turkiya haqida hikoya", "Unutilgan odam", "Domakl qilichi" singari dramatik asarlari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Nozim Hikmat ruhining tamalida tarixga, o'tmishga, ma'naviy qadriyatlarga bog'liqlik, diqqat va hurmat yotadi. Xo'p uzoqlardan kelyapmiz, xo'p uzoqlardan... Quloqlarimizda hamon chaqmoqli sasi bor cho'zma toshlarning. O'rmonlarda asov ayg'irlar kishnagan tog' boshlarining qonli hayvon suyaklari bilan o'ralgan chegaralari biz kelgan yo'lning uchidir. U o'tmishning "muqaddas xarobazorlarini" g'ururimizning solnomasi deb hisoblashda adashmaydi.

*Yo'lchi, Sharqqa esa yo'ling, unda sen
Har toshi muqaddas xarobaga boq!
U yerda so'nggi tomchi qonini to'kkkan
Yarador yigitlar jang qilar har chog'. [3: 201].*

Nozim Hikmat xarakter jihatdan kurashuvchan inson bo'lgan. U ozodlikni, haqiqatni, tenglikni nafaqat sevgan, balki uni qo'lidagi quroqla, mash'alaga aylantirib, bayroqdek hilpiratadi va yirik maydonlarda haqiqatni targ'ib etishdan ham chekinmagan. Shu sababli Nozim Hikmatni inqilob shoiri deb atash mumkin. U 1930-yilda yozgan "O'n to'qqiz yoshim" nomli she'rida shunday deydi:

Men

Yana aytaman ayni nag'malarни...
Aylantirmadi shamol meni havoda yaproqqa,
Men oldim yonimga shamollarni... [3: 201]

NATIJALAR (RESULTS).

O'tkir qalam sohibining "Insonlarning qo'shiqlari ..." deb boshlanuvchi bir she'rini kuzatsak:

*Insonlarning qo'shiqlari o'zlaridan go'zaldir,
o'zlaridan umidli,
o'zlaridan kadarli
yana-da uzun o'zlaridan.*

Sevdim insonlardan ko'ra qo'shiqlarini.

Insonsiz yashay oldim.

Qo'shiqsiz hech qachon.

Yorimni aldadim balki,

qo'shig'ini hech qachon.

Hech qachon aldamadi meni qo'shiqlar ham.

*Qo'shiqlarni angladim qaysi tilda aytilsa-da,
bu dunyoda yeb-ichganlarimning,*





SCIENCE BOX

*aylanib yurganlarimning,
ko'rib- eshitganlarimning,
tuyganlarimning,
bilganlarimning hech biri, hech biri
meni baxtiyor etmadi qo'shiqlar qadar.*

Bu she'rning o'ziyoq qo'shiqdek yozilgan yurak tubidan sizib chiqqan chin so'zlardir. She'rni mohiyatan moddiy tahlil qiladiga bo'lsak ham chindan so'zda, qo'shiqda ilohiy katta kuch bor. Inson shunchalar murakkabki, shunday hollar bo'ladiki, qo'shiqlar go'yoki tashnagan yaproqqa suv bergen kabi dillarga shu qadar orom va huzur baxsh etadi. Shu jihatdan qoshiqning kuchi, buyuk san'at asari sifatida qaralishi ko'philigimizga-da ma'lum. Biroq bu ayni she'r borasida mulohaza yuritganda bir tomonlama fikr yuritishdek bo'lib qoladi. Aslida she'rning tub zamirida nima yashiringan, shoir nega aynan qo'shiqdan bunchalik surur oladi. Yori aldasa hamki, nimaga uning qo'shig'i aldamasligiga bunchalik ishonadi kabi savollarga javob izlashga undaydi. Bu foniy dunyoda hamma narsa o'tkinchi, bari-barisi omonatdir. Faqatgina samimiylilik, yaxshiliklar, insoniy mehr-muhabbat, ma'naviy, ruhiy poklikkina barhayot qolishi mumkin. Ular yillar, asrlar o'tsa-da eskirmaydi, o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi, balki chin ma'noda bunga ehtiyoj tug'ilaveradi, menimcha. Bu fazilatlar makon va zamon bilmay doim qo'shiq kabi bir maromda yangrab turaversin.

Nozim Hikmat ijodidagi vatan mavzusi ham keng bo'lib, u betakror obrazdir. Bu obraz har qanday vaziyatda ham konkret hisoblanadi. Turkiyaning dengizi, ko'li, daryosi, shahar va qishloqlari, o'rmonlari va hokazo. Vatan obrazining atributlari shaklida muhabbat bilan tarannum etiladi. Uni quyidagi she'r orqali ko'rishimiz mumkin:

Nomusli, mehnatkash, faqir insonlarning shahri –

mehribon Istanbulim.

Sevgilim, sening makoning bo'lgan

va qayerga surgun etilsam, qaysi

qamoqda yotsam sirtimda,

xaltam ichida olib ketganim

va farzand dog'i kabi yuragimda,

sening xayoling kabi ko'zlarimda tashigan shahar... [3: 204-205].

MUHOKAMA (DISCUSSION).

O'zbekistonda Nozim Hikmat ijodiga qiziqish 1928-yildayq boshlangan. Uning qo'shiqlariga qo'shganot bo'lganlar talaygina. Jumladan, G'afur G'ulom, Shayxzoda, Mirtemir va boshqa uning ko'plab asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Turkiya haqida hikoya" pyesasi hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatrida, "Bir sevgi afsonasi" pyesasi asosidagi balet esa Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida sahnalaشتirilgan [4]. Yana Tilak Jo'ra, Habibulla Said G'ani, Rauf Parfilar she'r va bag'ishlovlardan yozishgan. Nozim Hikmatni o'ziga ustoz deb bilgan Rauf Parfi ijodida ustoz shoir chizgilari sezilib turadi. Rauf Parfi she'rlari zamonaviy o'zbek poeziyasida tamomila o'ziga xos hodisadir. Uning ijodida biror voqeani tasvirlashga bag'ishlangan voqeaband she'rlar yo'q hisobi. U inson ruhining kuychisi. O'tmish ham, bugungi kun ham shoir tuyg'ulariga ta'sir etadi va muayyan kayfiyat uyg'otadi. Nozik hislari torini bir chertib qo'yadi. Bu jihatidan u aynan Nozim Hikmat



SCIENCE BOX

she'riyatiga naqadar yaqin ekanligini ko'ramiz. Uning she'rlari o'quvchini o'yga toldiradi. U jo'nlikdan, hammaga ma'lum gaplarni aytishdan qochadi.

Butun turkiy tilli xalqlar uchun ardoqli bo'lib ulgurgan Nozim Hikmat bugun o'zi yo'q esada qoldirgan adabiy merosi, insoniylikdan mujda beruvchi chinakam mehnatlarining sadolari bugun makon va zamonda chegara bilmay qalb va erk kuychilarini olg'a intilishga undab kelmoqda. U shunday sadoki, haqiqatdan xabar beruvchi, biroq yoqimli sadodir!

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vazn va qofiyaga bo'ysunmaydigan tuyg'ularni madh etgan Nozim hikmat she'rlarining Rauf Parfi ijodiga shakl va uslub borasidagi ta'siri juda kattadir. Rauf Parfi Nozimning sadosi nomli bag'ishlov ham yozgan:

“ Ketdi Nozim. Kelar Nozim ovozi. Kipriklarim soqchiligidida mening ko'zim – mening quyoshim. Ona Turkistonim. Hasrat yanglig‘ mening dunyom, fikrlarim soqchiligidida. Atrofimda aylanar eng dardli, eng baxtli tiriklik sayyorasi. Men uning o'rtaida jahon kabi katta va norasida. Ko'z yoshlarim qalbimni ovutmadi, ko'zlarim yig'lasa, qalbim yig'lar chorasiz, qalbim yig'laganda, ko'zlarim to'kadi achchiq yosh. Quyosh – bir bosh, ko'zlarimni qalbimdan ayri tutmadim. Bir sado – Nozimning sadosi sochilar millionlarning son ming ko'chalariga, dunyoning eng yorug‘, dunyoning eng qora kechalariga. Nozim...Nozim...ketdi Nozim. Qoldi Nozim sadosi. Sadoning aks sadosi. Aks-sadoning aks-sadosi. Sadoga o'ralashib borar tobora dunyo. Sado kengliklari teran boqar menga Nozim Hikmat ko'zlarila ila.” [5]

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES).

1. Nozim Hikmat. Tanlangan asarlar. I jild. Boku. Ozarnashr. 1961
2. Nozim Hikmat She'rlar va poema. Toshkent. 1982.
3. Quliyev, E., Turkiy xalqlar adabiyoti. Toshkent. 2022
4. Internet manbasi.
<https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/nozim-hikmat-sherlar-yangi-tarjimalar-inson-manzaralari.html>
5. Internet manbasi.
<https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nozim-hikmatga-bagishlovlar.html>
6. Internet manbasi.
<https://qomus.info/oz/encyclopedia/n/nozim-hikmat-pah/>

